

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Rektor _____ Sh.Sirojiddinov

2020- yil “ ____ ” _____

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2020-yil “ ____ ” _____

Ro‘yxatga olindi: №BD: 5120100–2.04

2020-yil “ ____ ” _____

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Toshkent – 2020

Fan/modul kodi		O'quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Tilshunoslik nazariyasi	150	150	300	
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish to'g'risida"gi farmoni mazmunidan kelib chiqqan holda tilshunoslik sohasining predmeti, maqsadini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda tilning grammatik strukturasi, til va jamiyat, til va tafakkur munosabatlari, til birliklari, nutq birliklari, til birliklari o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, tilshunoslik metodlariga oid bilim va ko'nikmalar hosil qilish, tilshunoslik tarixining eng muhim bosqichlari borasida tasavvur hosil qilish, asosiy lisoniy ta'limotlar va maktablar, yo'nalishlar haqida ma'lumot berish muhim vazifalardan biridir.</p> <p>Fanni o'qitishning maqsadi tilshunoslik sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til birliklari, nutq birliklari, til birliklari o'rtasidagi munosabatlar, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, tasnifi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari, lisoniy universalialar va til strukturasi haqida ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4947 raqamli farmonida ta'kidlanganidek, "o'zbek tili, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash; "Tilshunoslik nazariyasi" fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash; talabalarda tilshunoslik nazariyasi bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish; tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, til sathlari, tilshunoslik fani bo'limlari, tilshunoslikda faol qo'llanadigan terminlar mohiyatini anglash, tilshunoslikning nazariy masalalariga ilmiy yondashuvni shakllantirish; tilshunoslik fanining tarixi, tilshunoslik maktablari va yo'nalishlari, tilshunoslik metodlari, lisoniy universalialar, lingvistik ta'limotlar va til strukturasi haqida bilim berish vazifalari nazarda tutiladi.</p>				

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

“Tilshunoslikka kirish” fani mazmuni

1-mavzu. “Tilshunoslikka kirish” fanining maqsadi, vazifalari

Tilshunoslik – mustaqil fan sifatida. Tilshunoslik fanining tushunchaviy-terminologik apparati. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiati. Til – kishilar o'rtasidagi aloqa quroli sifatida. Intralingvistika. Ekstralingvistika.

2-mavzu. Tilning ijtimoiy tabiati

Til va jamiyat. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi. Kishilik tarixida urug' tili, qabila tili, elat, xalq va millat tilining o'rni. Tilning ijtimoiy vazifalari: emotiv, akkumulyativ, estetik, metalisoniy va b. vazifalar.

Tilning jamiyatdagi ko'rinishlari. Me'yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Til va jamiyatning o'zaro ta'siri. Tillarning chatishuvi masalasi. Kreol tillar. Pijin tillari. Substrat va superstat hodisasi. Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun'iy til.

3-mavzu. Til va tafakkur munosabati

Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishi. Tildagi so'zlar, so'z birikmalari va jumalarning tafakkur mahsuli ekanligi. Til birliklari va tafakkur qonunlari (birliklari).

4- mavzu. Til va nutq munosabati

Til va nutqiy faoliyat. Nutq faoliyati, og'zaki va yozma nutq. Og'zaki va yozma nutq. Yozuv va savodxonlik muammolari.

Lisoniy va nutqiy birliklar. Til birliklarining alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi.

5-mavzu. Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli

Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar. O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari.

O'zbek xalqining yozuv tarixi. Alifbo va imlo masalasining davlat ahamiyatiga molik ekanligi.

6- mavzu. Til birliklari o'rtasidagi munosabatlar

Lisoniy paradigma. Til birliklari ortasidagi paradigmatic munosabatlar. Til birliklari o'rtasidagi iyerarxik munosabatlar. Til birliklari aranjirovkasi.

7- mavzu. Til – ramzlar tizimi

Tilning semiotik tabiati. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati. Til strukturasi elementlari – til sathlari. Tilshunoslik fani bo‘limlari.

8-mavzu. Tilning fonetik-fonologik sathi

Fonetikaning tadqiqot maqsadi va usuliga ko‘ra turlari: umumiy fonetika, xususiy fonetika (tavsifiy fonetika, tarixiy fonetika), qiyosiy fonetika eksperimental fonetika.

Fonetika aspektlari: 1. Fizik-akustik aspekt. 2. Anatomik-fiziologik aspekt. 3. Perseptiv aspekt. 4. Lingvistik-funksional aspekt.

Fonemaning differensial va integral belgilari. Fonema nazariyalari.

Fonetik o‘zgarishlar. Kombinator tovush o‘zgarishlari. Assimilyatsiya, akkomodatsiya, ularning turlari. Proteza, epenteza. Prokopa, sinkopa, apakopa, eliziya, aferezis, gaplogiya, metateza, dissimilyatsiya, geminatsiya, degeminizatsiya, sinerezis. Nazalizatsiya. Pozitsion tovush o‘zgarishlari.

Turkiy tillarda tovush uyg‘unligi. Singarmonizm.

Nutqning fonetik bo‘linishi. Fraz, takt, bog‘in, tovush.

Bo‘g‘in (sillabema). Urg‘u (aksentuatsiya). Intonatsiya (intonema)

Turli tillarda bo‘g‘in tiplari.

Urg‘u. Urg‘u tiplari: so‘z urg‘usi (dinamik urg‘u, erkin urg‘u); sintagma urg‘usi, logik urg‘u va emfatik urg‘u. So‘z urg‘usining ma‘no farqlash xususiyati. Urg‘uning til va nutqdagi roli.

Intonatsiya (intonema)ning prosodik elementlari: nutq melodikasi, nutq ritmi, temp, nutq intensivligi, nutq tembri, pauza. Intonatsiya turlari.

Morfonologiya va uning o‘rganish obyekti.

9-mavzu. Tilning lug‘at sathi

Tilning lug‘at tarkibi. Til taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar.

Leksikologiyaning turlari: umumiy va xususiy leksikologiya. Diaxron va sinxron leksikologiya. Leksikologiyaning semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, so‘z yasalishi kabi bo‘limlar bilan aloqasi.

Leksemaning til birligi sifatidagi mohiyati. Leksemaning ifoda va mazmun plani. Leksema, semema, sema tushunchalarining mohiyati. Leksik va grammatik ma‘no munosabati. Leksik-semantik paradigmalar.

Lugaviy sath taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi.

10-mavzu. Tilning grammatik sathi

Grammatika– tilning grammatik qurilishiga oid qonun-qoidalarni tahlil etuvchi sath sifatida. Grammatikaning tarkibiy qismlari: morfologiya va sintaksis. Grammatik ma‘no, grammatik shakl va grammatik kategoriya.

Morfologiya – so‘z shakli haqidagi ta‘limot. So‘z turkumlari. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.

Sintaksis – so‘z birikmasi va gap haqidagi ta‘limot.

11- mavzu. Tillarning shakllanishi va rivojlanishi

Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar. Sharq ilmida tilshunoslikka doir qarashlarning aks etishi. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi. Sinxronik va diaxronik o'zgarishlar. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik – tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi soha sifatida. Qardosh tillar (slavyan, german, roman tillari; turkiy tillar)dagi tarixiy fonetik o'zgarishlar. Qiyosiy fonetikaning vazifalari.

12- mavzu. Dunyo tillari tavsifi va tillar tasnifi

Dunyo tillari. Qadimiy tillar. O'lik tillar. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari. Til oilalari. Til guruhlari. Turkiy tillar oilasi. Qo'shimchali va qo'shimchasiz tillar. Agglyutinatív, flektiv tillar.

Tillarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar. Umumiy va xususiy metodlar. Qiyosiy-tarixiy metod. Statistik tahlil metodi. Komponent tahlil metodi.

“Umumiy tilshunoslik” fani mazmuni

1- mavzu. “Umumiy tilshunoslik” kursi predmeti, maqsad va vazifalari

Fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalar. Tilshunoslikning qadimgi asrlarda shakllanishi. Mesopotamiya tilshunosligi. Akkad, shumer va boshqa xalqlarning tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni. O'rta asrlarda Yevropa va Sharq tilshunosligining yuzaga chiqishi.

2- mavzu. Tilshunoslik fanining vujudga kelish tarixi. Tilshunoslik maktablari

Tilshunoslik maktablari. Tilga oid ta'limotlar evolyutsiyasi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Chog'ishtirma tilshunoslik. Lingvistik tipologiya.

3-mavzu. Qadimgi hind tilshunosligi

Qadimgi hind tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Vedalar tili. Prakrit tili. Vedalar va prakrit tillari orasidagi farqlar. “Ashtadxyan” asari. Panini grammatikasining sof empirik va tasviriy xususiyatlari.

4-mavzu. Qadimgi yunon tilshunosligi

Qadimgi yunon tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar bahsi. Stoiklar ta'limoti. Grammatikaning mantiqdan ajratilishi. Yunon tilshunosligining grammatik davri. Ellinizm davri til maktabi ta'limoti.

5-mavzu. Qadimgi Rim tilshunosligi

Qadimgi Rim tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar qarashlarining davom ettirilishi. Qadimgi Rim tilshunosligi vakillarining qarashlari. “Analogiya haqida”, “Lotin tili haqida”, “Grammatika

san'ati", "Fe'ning ma'nosi", "Grammatika san'ati haqida ta'limot" asarlarining lingvistik mohiyati.

6-mavzu. Qadimgi Xitoy tilshunosligi

Qadimgi Xitoy tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Xitoy leksikografiyasi. Xitoy tilshunosligida fonetik prosodemiya hodisasining ishlab chiqilishi. Xitoy grammatikasi asoschilari.

7-mavzu. O'rta asrlar tilshunosligi

O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta asr tilshunoslarining nazariy qarashlari. Yevropa tilshunosligi. Arab tilshunosligi. Arab leksikograflari. "Kitob ul -ayn", "Kitob ul-avomil", "Al -kitob" asarlari mohiyati.

8-mavzu. O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanishi

Qomusiy olimlarning tilshunoslikka oid qarashlari. Grammatikaga doir manbalardagi lingvistik qarashlar.

Mahmud Koshg'ariy – turkiy tillar qiyosiy grammatikasining asoschisi. "Devonu lug'otit turk"ning tillar tasnifi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni.

O'rta asr tilshunosligi va bugungi kun muammolari. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining tilshunoslik nazariyasini o'rganishdagi ahamiyati.

9- mavzu. Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi.

Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. Umumiy ratsional grammatikaning yaratilishi. "Pol-Royal" grammatikasi (K.Lanslo va A.Arno). Grammatika bilan mantiq o'rtasidagi aloqadorlik. Slavyan tilshunosligi.

10- mavzu. XIX va XX asr tilshunosligi

Umumiy tilshunoslik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. Komparativistika. Hind-yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganishning to'rt davri. V. fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik. Naturalizm. Psixologizm. Til sotsiologiyasi. Areal lingvistik. Strukturalizm.

11-mavzu. Tilshunoslik maktablari

Strukturalizm maktablari. "Yosh grammatikachilar" maktabi. "Yosh grammatikachilar" maktabining lingvistik qarashlari. Qozon lingvistik maktabi. Moskva lingvistik maktabi.

Struktur tilshunoslik. Struktur tilshunoslik asoschilari va namoyandalari. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati. Sossyur ta'limoti va strukturalizm.

Praga lingvistik maktabi. Neolingvistikaning shakllanishi. Glossematika maktabi ta'limoti. Deskriptiv lingvistikaning shakllanishi. Umumiy (universal) grammatika maktabi. F.de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" asari. Til va

nutq. Sinxroniya va diaxroniya. Fonologiyaning shakllanishi. Kopengagen tilshunoslik maktabi. Me'yoriy holatlardan chekinish, uzus va nutq faoliyatining absolyutlashtirilishi. Neolingvistika.

12-mavzu. XXI asr dunyo tilshunosligi

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. Sotsiolingvistika. Psixolingvistika. Neyrolingvistika. Pragmatik tilshunoslik. Kognitiv tilshunoslik. Lingvokulturologiya. Amaliy tilshunoslik. Kompyuter lingvistikasi.

13- mavzu. Lingvistik tahlil metodlari

Tilshunoslikning tadqiqot metodlari. Eksperimental-fonetik metod. Lingvogenetik tadqiqot metodlari: qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, rekonstruksiya, miqdoriy, transformatsion metodlar. Areal tadqiqot metodlari: qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, kartografik, metakartografik, statistik, kadastrlash metodlari. Tipologik tadqiqot metodlari. Distributiv metod.

Gap bo'laklari metodi; tarixiy-qiyosiy metod; substitusiya (almashtirish) metodi; tarkibiy qismlarga ajratish metodi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tilning ijtimoiy tabiati.
2. Tilning ijtimoiy vazifalari.
3. Me'yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Kreol tillar. Pijin tillari. Tillarning chatishuvi masalasi.
4. Til va tafakkur.
5. Til va nutq munosabati.
6. Tilning semiotik tabiati. Til-ramzlar tizimi.
7. Til sathlari.
8. Tilning leksik-semantik sathi.
9. Grammatik sath. Til birliklarining alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi.
10. Nutqning fonetik bo'linishi. Nutq jarayonidagi o'zgarishlar. Frazalar, takt, sintagma. Fonetik o'zgarishlar. Morfologik qayta bo'linish.
11. Til taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.
12. Yozuv va uning tarixiy ko'rinishlari.
13. Gap bo'laklarini ajratish metodi.
14. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati.
15. Tilshunoslik va psixologiya.
16. Tilshunoslik va biologiya.
17. Tilshunoslik va aniq fanlar munosabati.
18. Tilshunoslik va matematika.
20. Tilshunoslik tarixi.
21. O'zbekistonda til ilmi tarixining asosiy bosqichlari.
22. Tilshunoslik maktablari.
23. Til qurilishi va tizimi.
24. Terminologiya.

25. Tilshunoslik metodlari.
26. Lisoniy paradigmalari.
27. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va dolzarb muammolari.
Sotsiolingvistika. Psixolingvistika. Paradigmatika. Pragmatika.
Lingvokulturologiya.
28. Umumiy tilshunoslikka oid so‘nggi izlanishlar.
29. Tilning muloqot funksiyasi.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar til birliklari va nutq birliklarining o‘zaro munosabati, dunyo tillari tavsifi va tasnifi, til sathlari, til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatik o‘zgarishlar, tilshunoslik maktablarining qarashlari, tilshunoslik yo‘nalishlari, yozuv tarixi va yozuv turlari, lingvistik tahlil metodlari haqida bilimga ega bo‘ladilar.

Izoh: Mazkur ro‘yxatdagi mavzulardan amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e‘tibor berish tavsiya etiladi.

IV. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar til birliklari va nutq birliklarining o‘zaro munosabati, dunyo tillari tavsifi va tasnifi, til sathlari, til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatik o‘zgarishlar, yozuv tarixi va yozuv turlari, tillarning shakllanishi va rivojlanishi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari haqida amaliy ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

Seminar mashg‘ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilning ijtimoiy ko‘rinishlari. Sotsiolingvistika.
2. Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun‘iy tillar.
3. Til fikr ifodasi va fikr manbai sifatida.
4. Til birliklari va nutq birliklari.
5. Til birliklarning alohida tizim sifatida o‘zaro mutanosibligi.
6. Til sathlari; tilning fonetik-fonologik sathi.
7. Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.
8. Til taraqqiyotidagi semantik o‘zgarishlar.
9. Yozuv va uning tarixiy ko‘rinishlari.
10. Kombinator va pozitsion tovush o‘zgarishlari.
11. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.
12. Tilshunoslikning taraqqiyot bosqichlari.
13. Tilshunoslik maktablari.
14. Tilshunoslik maktablari ta‘limotlarining asosiy mohiyati.
15. Fonetika va fonologiya masalalari.
16. Grammatika va grammatik ta‘limotlar.
17. Lisoniy tadqiqotlarga xos paradigmalari.
18. Kompyuter lingvistikasi. Etnolingvistika.

Seminar mashg‘ulotlarda talabalar til birliklari va nutq birliklarining o‘zaro munosabatini mustaqil holda yoritadilar, dunyo tillari tavsifi va tasnifi,

til sathlari, til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlarni misollar asosida tahlil qiladilar, tilshunoslik maktablarining qarashlari, tilshunoslik yo'nalishlari, yozuv tarixi va yozuv turlari, lingvistik tahlil metodlari haqida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e'tibor berish tavsiya etiladi.

V. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim talabalarga avvaldan berib qo'yiladigan mavzular asosida tashkil etiladi. Talabalarning o'zlashtirishlari amaliy mashg'ulot va seminar mashg'ulotlari davomida nazorat qilinadi.

Mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilning tizim sifatidagi mohiyati.
2. Tilshunoslik va semiotika.
3. Sharq mutafakkirlarining til shakllanishiga oid qarashlari.
4. Til oilalari. Hind-yevropa tillari oilasi. Roman tillari.
5. Leksemaning semantik tabiati: leksema, semema va sema.
6. Lug'aviy sath taraqqiyotining ichki va tashqi manbalari.
7. Lug'aviy birliklarning qo'llanish doirasiga ko'ra guruhlanishi: iste'mol doirasi chegaralangan va keng iste'mol qatlami.
8. Terminlarning monosemantik xarakteri.
9. Frazemalarning semantik turlari: omonim, sinonim, antonim iboralar.
10. Grammatika – til strukturasi o'rganuvchi soha sifatida. Morfologiya va sintaksis.
11. Grammatik ma'noni ifodalovchi vositalar.
12. Fonema nazariyasi tarixidan. Fonemalar haqida turli fonologik maktab vakillarining fikrlarini o'rganish.
13. "Umumiy tilshunoslik" kursining asosiy masalalari.

	<p>14. O'rta asrlar Sharq va Yevropa tilshunosligi. 15. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi. 16. Yosh grammatikachilar maktabining yutuqlari va cheklangan jihatlari. 17. F.de Sossyur ta'limoti va strukturalizm. 18. Neolingvistika. 19. Praga lingvistik maktabi ta'limotida fonologiyaning o'rni. 20. Glossematika maktabi ta'limoti. 21. Amerika deskriptiv lingvistikasi. 22. Psixolingvistika – til va tafakkur birligini yorituvchi soha sifatida. 23. Tilshunoslik fanining zamonaviy tahlil usullari.</p> <p>Izoh: mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3.</p>	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, til va jamiyat munosabati, til va tafakkur munosabati, lison va nutq munosabati, asosiy lisoniy munosabatlar, til birliklari va nutq birliklarining o'zaro mutanosibligi, tilning semiotik tabiati, tilning ramzlar tizimi sifatidagi ta'rifi, til sathlari, lisoniy paradigma asoslari, lisoniy tasnif asoslari, tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi, dunyo tillari va tillar tasnifi, tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi, tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan aloqadorligi, qadimgi asrlar tilshunosligi, o'rta asrlar tilshunosligi, Yevropa uyg'onish davridagi tilshunoslik haqida tasavvurga ega bo'lishi; - tilshunoslik va ijtimoiy, tabiiy fanlar kesimida paydo bo'lgan zamonaviy integratsion fanlarni, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nazariyalari va metodlarini, tilning ijtimoiy vazifalarini, struktur tilshunoslik nazariyalari va metodlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - tillarning tipologik tasnifini faktik material asosida yoritish, til tiplarining asosiy belgilarini farqlash, morfologik tasnifni agglyutinativ va flektiv tillar misolida tahlil qilish, morfologik shakllarning xilma-xilligi, tillarning morfologik tipologiyasini tahlil qilish, geneologik tasnifni til oilalari va til guruhlari asosida izohlash, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, qardosh va qardosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi munosabatni yoritish, lisoniy va nutqiy birliklarning o'zaro munosabatini tahlil qilish, tilni umumiy, nutqni xususiy hodisa sifatida asoslash, til–tafakkur–nutq munosabatini mustaqil izohlash, tilshunoslik nazariyasi masalalari haqida mustaqil fikr yurita olish, diaxron tadqiqot metodlaridan foydalanish, sinxron tadqiqot metodlarini qo'llay bilish ko'nikmalariga; - tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligini tahlil qilish, leksik-semantik hodisalarni anglash kompetensiyasiga ega bo'lishi kerak.
<p>4.</p>	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p>

	<ul style="list-style-type: none"> • ma’ruza; • “keys-stadi”lar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimot texnologiyasi; • intellekt xaritalar; • konseptual jadvallar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va metodik tushunchalarni o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, til va nutq rivojiga oid jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa hamda topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha yozma ish topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010. 2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2009. 3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2013. 4. I.Yo’ldoshev va b. Mutaxassislikka (tilshunoslikka) kirish. –Toshkent, 2018. 307-b. 5. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent, 2019. <p style="text-align: center;">Qo’shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”. 2017 йил, 8 февраль). 10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари” тўғрисида”ги қарори (“Халқ сўзи”, 2017 йил, 21 апрель) 11. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004. 12. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. 13. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. –Budapest, 2006. 14. Dadaboyev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi –

- Toshkent, 2004.
15. Лингвистический энциклопедический словарь. –М.,1990.
 16. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. –Andijon, 2006.
 17. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
 18. Nurmonov A. Linvistik tadqiq metodologiyasi va metodlari. –Toshkent, 2011
 19. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. –Toshkent, 2007.
 20. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
 21. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007.
 22. Xojiev A. Tilshunoslik terminlari lug‘ati. –Toshkent, 2002.
 23. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv-uslubiy majmua. –Toshkent, 2020.

Elektron manbalar

www. literature.uz

www. genhis philol.ru.

<http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.

<http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.

7. Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202__ yil “__” _____ dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202__ yil “__” _____ dagi _____ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

8.	<p>Fan / modul uchun mas'ullar:</p> <p>H.Dadaboyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori doktori</p> <p>M.Xolmuradova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>B.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori</p> <p>M.Abdurahmonova – O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi</p>